

2022-yil 31-mart

“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AJDA SAYYOR SEMINAR-TRENING YUQORI SAVIYADA O‘TKAZILDI







“Dehqonobod kaliy zavodi” AJda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son hamda **“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori ijrosining ta‘minlanishi hamda davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bo‘yicha mavjud holatni o‘rganish va o‘zaro tajriba almashish maqsadida tashkil etilgan sayyor seminar-trening yuqori saviyada o‘tkazildi.

Quvonarlisi, barcha sexlarda ishchi-xodimlar uchun ma‘naviyat xonalari tashkil etilgan va har oyda korxonada xodimlari o‘rtasida kitob mutolaasi muhokamalari o‘tkazib borilmoqda. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda ishchi-xodimlar uchun tashkillanayotgan ommaviy sport tadbirlari, badiiy kechalar, tarixiy shaharlarga sayohatlar va bir qator ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ham namunali tarzda uyushtirilmoqda.

2022-yil yanvar-mart oylarida Jamiyatdan jami 914 ta xat chiqarilgan, barcha chiquvchi xatlar o‘zbek tilida chiqarilgan.

Shuningdek, seminarlarda ishtirok etgan tarmoq korxonalar vakillari bilan o‘zaro tajriba almashildi.

O‘rganish yakuniga ko‘ra quyidagi taklif va tavsiyalar berildi:

1. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha boshqaruv raisi maslahatchisi Z.Salimovaga

maslahatchilik faoliyatini tashkillashtirish yuzasidan tavsiyalar hamda shakllantirishi zarur bo'lgan hujjatlardan namunalari (elektron variantda) berildi.

2. Kadrlar bo'limi boshlig'i hamda davlat tili bo'yicha mas'ulga xodimlarni Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida o'qitish jarayonini yanada jonlantirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dkz-marifiy-tadbirlar>